

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar oyi uchun


- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-fevral holatiga ko'ra viloyatda 2 729 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarning katta qismi quyidagilarga:

- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 625 ta (22,9 %);
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 565 ta (20,7 %);
- tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat – 213 ta (7,8 %);
- mebel ishlab chiqarish – 177 ta (6,5 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 171 ta (6,3 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 111 ta (4,1 %) to'g'ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi (2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra)



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 27 126,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	27 126,6	108,2
Navoiy sh.	25 179,7	108,7
Zarafshon sh.	45,4	106,2
G'ozg'on sh.	9,1	112,5
tumanlar:		
Karmana tumani	967,0	103,8
Konimex tumani	97,1	128,2
Qiziltepa tumani	85,7	109,4
Navbahor tumani	98,5	103,0
Nurota tumani	31,8	104,4
Tomdi tumani	4,0	106,3
Uchquduq tumani	11,6	59,8
Xatirchi tumani	274,3	159,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 24 221,8 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (89,3 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1 953,6 mlrd so'm (7,2 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 910,2 mlrd so'm (3,4 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 41,0 mlrd so'm (0,1 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar oyida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar oyida viloyatda 0,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan 68,9 % ga oshgan), 9,9 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (17,9 % ga ko'paygan), 62,0 ming tonna sement (59,1 % ga kamaygan) hamda 24,4 ming m3 azot (56,2 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	2,3	3,4	0,5
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	7,6	8,4	9,9
Yogurt, tonna	0,1	1,9	0,5
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolbalar, ming d	253,9	135,7	143,1
Azot, ming m3	0,7	15,6	24,4

Argon, ming m3	119,9	98,4	120,4
Mochevina (karbamid), ming t azot	21,3	24,4	22,6
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	0,8	1,1	1,0
Portlandsement, ming t	178,5	151,5	62,0

**2024-2026-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 89,9 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,0 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar oyida 0,05 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,2 % (6,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 91,5 % (87,8 %), quyi texnologiyali 3,3 % (5,3 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 3,7 % ga ko'payish kuzatildi, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 96,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	1 114,0	935,8	970,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	620,0	586,9	566,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 42,2 % ga, oqava suvlarning shلامي 2,0 m ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 2,1 m ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar*	2025-yil yanvar*	2026-yil yanvar
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	4,2	22,2	31,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	11,6	3,6	7,4
Oqava suvlarning shلامي, mlrd so'm	0,2	3,2	6,6

*2024-2026-yillarning yanvar oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 736,3 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 4,0 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik

subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari;
e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

